

**FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH:
ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA E-HIZMATLAR, MA'LUMOTLAR
BOSHQARUVI VA HUQUQIY XATARLAR TAHLILI**

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d.(DSc).

Omonov Alim Tolibovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18358457>

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq xizmatlarini raqamlashtirish masalalari ma'muriy-huquqiy va boshqaruv (governance) yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot fuqarolik bo'yicha arizalarni elektron qabul qilish, identifikatsiya va verifikatsiya jarayonlarini raqamli vositalar orqali yuritish, idoralararo ma'lumot almashish platformalarini integratsiya qilish, "end-to-end" ish yuritish va "track-and-trace" nazorat mexanizmlarini joriy etish kabi yo'nalishlarni tizimlashtiradi. Maqolada raqamlashtirishning huquqiy asoslari, elektron hujjat aylanishi, elektron imzo, ma'lumotlar sifati va interoperabilitet, shuningdek qaror qabul qilishning asoslantirilganligi va shikoyat mexanizmlarining raqamli formatda ishlashi yoritiladi. Alohida e'tibor shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, algoritmik xatolik va ehtimoliy diskriminatsiya, "human-in-the-loop" prinsipi, shaffoflik va komplaens talablari kabi huquqiy-axloqiy risklarga qaratiladi. Yakunda raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich joriy etish, minimal protsedural standartlar va ma'lumotlar boshqaruvi (data governance) modelini mustahkamlash bo'yicha amaliy takliflar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari; fuqarolikni rasmiylashtirish; raqamlashtirish; e-hizmat; identifikatsiya; verifikatsiya; idoralararo integratsiya; data governance; kiberxavfsizlik; shaxsiy ma'lumotlar himoyasi.

Аннотация. В статье анализируются вопросы цифровизации деятельности органов внутренних дел по оформлению гражданства с позиций административно-правового и управленческого (governance) подходов. Исследование систематизирует направления внедрения электронных услуг: электронный приём заявлений, цифровая идентификация и верификация, интеграция межведомственного обмена данными, сквозное электронное делопроизводство и механизмы контроля по принципу "track-and-trace". Рассматриваются правовые основы цифровизации, электронный документооборот и электронная подпись, требования к качеству данных и интероперабельности, а также обеспечение мотивированности решений и работы механизмов обжалования в цифровом формате. Отдельное внимание уделяется рискам защиты персональных данных и кибербезопасности, алгоритмическим ошибкам и потенциальной дискриминации, принципу "human-in-the-loop", требованиям прозрачности и комплаенса. В заключении предлагаются практические рекомендации по поэтапному внедрению цифровой трансформации, укреплению минимальных процедурных стандартов и модели управления данными (data governance).

Ключевые слова: органы внутренних дел; оформление гражданства; цифровизация; электронные услуги; идентификация; верификация; межведомственная интеграция; data governance; кибербезопасность; защита персональных данных.

Abstract. This article analyzes the digitalization of internal affairs bodies' activities in citizenship formalization from administrative-law and governance perspectives.

It systematizes key e-service directions, including online application intake, digital identity verification and document authentication, inter-agency data exchange and interoperability, end-to-end electronic case management, and “track-and-trace” monitoring mechanisms. The paper discusses the legal foundations for digital transformation, e-document workflow and e-signatures, data quality and governance requirements, and ensuring reasoned decision-making and effective appeals in digital formats. Particular attention is paid to legal and ethical risks such as personal data protection, cybersecurity, algorithmic error and potential discrimination, the “human-in-the-loop” principle, and transparency/compliance requirements.

The article concludes with practical recommendations for phased implementation, strengthening minimum procedural standards, and institutionalizing a data-governance model for citizenship services.

Keywords: *internal affairs bodies; citizenship formalization; digitalization; e-services; identity verification; document authentication; inter-agency interoperability; data governance; cybersecurity; personal data protection.*

Fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha ma'muriy jarayonlar ko'p bosqichli hujjat aylanishi, identifikatsiya-verifikatsiya, idoralararo ma'lumot almashish va asoslantirilgan qaror qabul qilishni talab qiladi. Shu sababli ichki ishlar organlari faoliyatini raqamlashtirish fuqarolarga xizmat ko'rsatish tezligi va sifatini oshirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda protsessual shaffoflikni kuchaytirishning muhim instrumenti sifatida qaraladi. Biroq raqamlashtirish jarayoni ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, algoritmik qarorlar ustidan nazorat, “due process” va shikoyat mexanizmlarining samarali ishlashi kabi yangi huquqiy xatarlarni ham keltirib chiqaradi.

Zamonaviy davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning o'rni kun sayin ortib bormoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi, ichki ishlar organlari faoliyatida ham “Elektron hukumat” (E-government) konsepsiyasini joriy etish eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi “O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-45-son Farmoni¹ sohadagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Fuqarolikni rasmiylashtirish – bu davlat va shaxs o'rtasidagi siyosiy-huquqiy aloqani tasdiqlovchi eng muhim institutdir. An'anaviy tarzda bu soha qat'iy nazorat va qog'ozbozlikka asoslangan edi. Biroq, bugungi kunda migratsiya va personallashtirish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali aholiga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish hamda sohada raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish davr talabiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini raqamlashtirish nafaqat texnik yangilanish, balki davlat xizmatlarini ko'rsatish falsafasini tubdan o'zgartirish, ya'ni “nazorat qilish”dan “xizmat ko'rsatish” (Public Service) modeliga o'tishni anglatadi.

Mazkur paragrafda IIO migratsiya va personallashtirish bo'linmalarini bosqichma-bosqich “Tezkorlik va shaffoflik!” tamoyili asosida aholiga yanada qulay va sifatli xizmat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi “O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-45-son Farmoni // lex.uz.

ko'rsatuvchi "servis bo'linmalari"ga aylantirish jarayonining ilmiy, huquqiy va amaliy jihatlari kompleks tahlil qilib o'tamiz.

Fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilishdan oldin, amaliyotda to'planib qolgan muammolarni identifikatsiya qilish zarur. Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatadiki, fuqarolik, pasport tizimi va migratsiya masalalari bilan ishlashda quyidagi tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

Birinchidan, ma'lumotlar bazalarining tarqoqligi. Hozirgi kunga qadar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi va Ichki ishlar vazirligining axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya to'liq ta'minlanmagan. Bu esa fuqarolik masalalarini ko'rib chiqishda takrorlanuvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga, vaqt yo'qotishlariga va axborot resurslari samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, inson omili va byurokratiyaning yuqoriligi. Fuqarolikka qabul qilish, fuqarolikdan chiqish yoki fuqarolikni yo'qotish bilan bog'liq hujjatlarni to'plash, ko'rib chiqish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yuborish jarayonlarida inson omili yuqori. Bu esa jarayonning cho'zilishiga va ayrim hollarda korruptsiogen omillarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, xizmatlarning to'liq masofaviy emasligi. Aksariyat davlat xizmatlari, garchi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali ariza yuborish imkoni mavjud bo'lsa-da, yakuniy natijani olish uchun fuqaroning shaxsan IIO binosiga kelishini talab etadi. Bu aholi uchun noqulaylik tug'diradi va IIO bo'linmalarida doimiy navbatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish va pasport tizimini ta'minlash faoliyatida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Amaliyotdagi asosiy muammo shundan iboratki, fuqarolik masalalari, migratsiya va shaxsni tasdiqlashga oid ma'lumotlar bazalari tarqoq holatda faoliyat yuritmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi va Ichki ishlar vazirligining tizimlari to'liq integratsiya qilinmaganligi aholiga "yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish imkoniyatini cheklamoqda. Shuningdek, fuqarolikni rasmiylashtirish va pasport-viza xizmatlarini ko'rsatishda inson omilining yuqoriligi, navbatlarning mavjudligi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining to'liq raqamlashmaganligi fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Amaldagi tizim fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarning dolzarbligini real vaqt rejimida ta'minlash va qog'ozbozlikni qisqartirish talablariga to'liq javob bermaydi.

Ushbu muammoli holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ***"Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori*** loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish obyektiv zarurat hisoblanadi (*qaror loyihasi dissertatsiyaga ilova qilingan*).

Birinchidan, fuqarolikni rasmiylashtirish va migratsiya jarayonlarini institutsional jihatdan yagona tizimga solish talab etiladi. Loyihada Ichki ishlar vazirligi huzurida Migratsiya va personallashtirish departamentini tashkil etish hamda unga Personallashtirish markazi va hududiy bo'linmalarni bo'ysundirish nazarda tutilgan. Bu esa fuqarolik masalalari bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish va ijro intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, sun'iy intellektni keng joriy etish zarurati mavjud.

Loyihada eksperiment tariqasida *“Aqli migratsiya shoxobchalari” (Smart migration stations)* tashkil etish va ularda fuqarolarga oʻziga oʻzi xizmat koʻrsatish imkoniyatining yaratilishi lozim. Bu fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bogʻliq dastlabki bosqichlardagi byurokratik jarayonlarni qisqartiradi.

Uchinchidan, maʼlumotlarning ishonchliligini taʼminlash uchun yagona raqamli platformaga ehtiyoj sezilmoqda. Nazarda tutilgan hujjatda Personallashtirish markazining maʼlumotlar bazalarini IIVning “Pasport-viza” tizimiga birlashtirish orqali shaxsga doir maʼlumotlar jamlangan **“Yagona raqamli migratsiya” platformasini (Digital migration platform) yaratish** imkonini beradi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi natijasida quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga erishish mumkin:

- ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish boʻlinmalari bosqichma-bosqich *“Tezkorlik va shaffoflik!”* tamoyili asosida *“servis boʻlinmalari”*ga aylantiriladi.

Fuqarolar *“Passport-visa”* mobil ilovasi orqali onlayn tarzda huquqiy maslahat olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻladilar;

- fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun arizalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali masofadan yuborish mexanizmi joriy etiladi. Shuningdek, jismoniy shaxslarga ID-karta berish jarayonida elektron raqamli imzo sertifikatini bepul taqdim etilib, fuqarolar avtomatik tarzda *“Elektron hukumat”* tizimida identifikatsiya qilinadi;

- fuqarolik, doimiy yashash va migratsiyaga oid barcha maʼlumotlarning yagona bazada jamlanishi, fuqarolikni rasmiylashtirishda hujjatlarni tekshirish muddatlarini qisqartiradi va maʼlumotlarning dolzarbligini taʼminlaydi;

- inson omilini kamaytirish orqali korrupsion holatlarning oldi olinadi va fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarining shaffofligi taʼminlanadi.

Mazkur loyihaning amaliyotga tatbiq etilishi tadqiqot ishida koʻtarilgan fuqarolikni rasmiylashtirish tizimini takomillashtirish boʻyicha ilmiy takliflarning normativ asosini yaratadi va sohani toʻliq raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish uchun avvalo sohaning institutsional tuzilmasini takomillashtirish zarur. Shu maqsadda, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti faoliyati qayta koʻrib chiqildi va u IIV markaziy apparatining mustaqil tarkibiy boʻlinmasi sifatida belgilandi.

Departamentning yangi tashkiliy tuzilmasi va vazifalari bevosita raqamli makon bilan bogʻlangan. Xususan, Departamentning asosiy vazifalaridan biri sifatida migratsiya va personallashtirish sohasida raqamli davlat xizmatlari qamrovini yanada kengaytirish, departament faoliyatini raqamlashtirish, departamentning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini taʼminlash belgilandi.

Bundan tashqari, Departament faoliyatiga tatbiq etilgan axborot tizimlari va resurslarini yuritish, elektron maʼlumot almashinuvini taʼminlash hamda zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish funksiyalarini amalga oshiradi. Ushbu institutsional oʻzgarishlar respublika – viloyat – tuman (shahar) boʻlinmalar faoliyatini tashkil etishni sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish va ular samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini raqamlashtirishning fundamental asosi – bu yagona va ishonchli maʼlumotlar bazasini shakllantirishdir. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan qaror loyihasiga koʻra, Ichki ishlar vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda

shaxsga doir ma'lumotlar dolzarbligi va xavfsizligini ta'minlash, davlat xizmatlari sonini oshirish hamda takrorlanuvchi ma'lumotlarni birlashtirish orqali axborot resurslari samaradorligini oshirish maqsadida Personallashtirish markazining ma'lumotlar bazalari va dasturiy ta'minotlarini IIVning "Pasport-viza" avtomatlashtirilgan axborot tizimlari majmuasiga birlashtirishi lozim.

Ushbu integratsiya natijasida shaxsga doir ma'lumotlar jamlangan **"Yagona raqamli migratsiya" platformasi (Digital migration platform)** yaratiladi. Mazkur platforma fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonida quyidagi markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va dolzarblashtirish imkonini beradi:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash va turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan manzili to'g'risidagi ma'lumotlar.

- Identifikatsiyalovchi ID-karta seriyasi, raqami, berilgan joyi va muddati to'g'risidagi ma'lumotlar.

- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar to'g'risidagi umumiy biometrik va biografik ma'lumotlar.

Mazkur platformaning ishga tushirilishi fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish muddatlarini keskin qisqartiradi va "Elektron hukumat" tizimining boshqa tarmoqlari bilan uzluksiz aloqani ta'minlaydi.

Fuqarolikni rasmiylashtirishda zamonaviy texnologiyalardan, xususan, sun'iy intellekt (SI) algoritmlaridan foydalanish jahon amaliyotida keng ommalashmoqda. O'zbekiston IIOLari tizimida ham bu yo'nalishda tub burilish yasalamoqda. Qarorda Ichki ishlar vazirligiga sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan "Passport-visa" mobil ilovasini ishlab chiqish vazifasini yuklash maqsadga muvofiq.

Mazkur ilova orqali fuqarolar:

- migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlaridan foydalanishi;
- onlayn huquqiy maslahat olishi;
- yuklamasi kam bo'lgan migratsiya bo'linmalari haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, fuqarolik va migratsiya sohasida boshqa shaxsning roziligi talab etiladigan (masalan, turar-joyga ro'yxatga qo'yishda uy egasining roziligi) davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini va qog'ozbozlikni yo'q qilish maqsadida **"E-Rozilik" platformasini** ishga tushirish maqsadga muvofiq. Ushbu platforma shaxsni "Pasport-viza" avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining "Face-ID" moduli orqali masofadan turib aniqlash va roziligini olish imkonini beradi. Bu fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonida mutlaqo yangi, kontaktsiz (contactless) xizmat ko'rsatish davrini boshlab beradi.

Fuqarolikni rasmiylashtirish va pasport xizmatlarini aholiga yanada yaqinlashtirish maqsadida, eksperiment tariqasida Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida bittadan tuman (shahar) ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish bo'linmalarida o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratish, sun'iy intellektga asoslangan **"Aqlli migratsiya shoxobchalari"** (Smart migration stations) tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bunday shoxobchalar fuqarolarga mustaqil ravishda, IIO xodimining ishtirokisiz quyidagi harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi:

• yangi ID-karta yoki xorijga chiqish pasportini rasmiylashtirish uchun biometrik ma'lumotlarni (barmoq izlari, yuz qiyofasi) topshirish;

• davlat bojini elektron shaklda to'lash;

• tayyor bo'lgan hujjatlarni avtomatik terminallar orqali qabul qilib olish.

Eksperiment natijasidan kelib chiqib, "Aqlli migratsiya shaxobchalari"ni respublikaning boshqa hududlarida, shuningdek, savdo va ko'ngilochar markazlar, turistik hududlarda ham joriy etish lozim. Bu chora-tadbir IIO bo'linmalaridagi yuklamani keskin kamaytiradi va "servis bo'linmasi" konsepsiyasini amalda ro'yobga chiqaradi.

Fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan emas, balki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (FBSH) va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlashni ham qamrab oladi. Raqamlashtirish ushbu toifadagi shaxslarga ham birdek qulaylik yaratishi lozim.

Qaror loyihasida quyidagi davlat xizmatlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatish imkoniyati belgilandi:

• xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish;

• fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ariza yuborish.

Bu, o'z navbatida, Departament tomonidan fuqarolikka qabul qilingan va fuqarolikdan chiqarilgan shaxslar hisobini elektron shaklda yuritish, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga harakatlanish hujjatlarini berishni tashkil etish, xorijga vaqtincha va doimiy yashashga chiqish uchun hujjatlarni masofadan rasmiylashtirish jarayonlarini tezlashtiradi.

Fuqarolikni rasmiylashtirishning mantiqiy davomi bu – shaxsning raqamli huquqiy maqomini belgilashdir. Ushbu Qaror bilan jismoniy shaxslarga identifikatsiyalovchi ID-kartalari birinchi marotaba rasmiylashtirilganda uning chipiga kiritiladigan elektron raqamli imzo sertifikatini bepul berish hamda fuqaroni "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimidan avtomatik tarzda bepul ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti joriy etiladi.

Bu nafaqat fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatni (ID-karta) olishni anglatadi, balki fuqaroga davlatning barcha elektron xizmatlaridan foydalanish uchun universal "raqamli kalit" berilishini bildiradi. Bu qadam O'zbekiston fuqarolarining raqamli jamiyatga integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonini raqamlashtirishning eng nozik jihati – bu shaxsga doir biometrik va biografik ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashdir. Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali mavjud axborot tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilash lozim.

Departamentning axborot tizimlari va resurslaridagi ma'lumotlar, shu jumladan, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini qurilma, tarmoq va dasturiy ta'minot darajasida ta'minlash vazifasini belgilash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, Departament O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi, shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrini yurituvchi va ushbu sohada davlat nazoratni amalga oshiruvchi asosiy organ hisoblanadi. Departament boshlig'i maxfiylik rejimi, shu jumladan, axborotni texnik himoya qilish bo'yicha tadbirlar tashkil etilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning nazariy va amaliy ahamiyatini sarhisob qilar ekanmiz, quyidagi kutiladigan natijalarni alohida ta'kidlash joiz:

1. Ma'lumotlar bazalarining birlashtirilishi ("Yagona raqamli migratsiya" platformasi) va "Aqlli migratsiya shoxobchalari"ning ishga tushirilishi fuqarolikni rasmiylashtirish, ID-karta va xorijga chiqish pasportlarini olish vaqtini bir necha barobarga qisqartiradi;

2. Ro'yxatga olish bilan bog'liq ishlarni idoralararo elektron hamkorlik orqali "yagona darcha" tamoyili asosida amalga oshirish, masalan, talabalarni yotoqxonaga joylashish shartnomasi asosida avtomatik ro'yxatga olish, ortiqcha ovoragarchiliklarni yo'q qiladi;

3. Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish tizimi faoliyatini "jazolovchi" modeldan inson qadriga yo'naltirilgan "servis" modeliga o'tkazish aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini keskin oshiradi;

4. "Xavfsiz shahar" tizimi va Face-ID texnologiyalarining integratsiyasi pasport tizimi qoidalarini buzgan shaxslarni tezkor aniqlash va jinoyatchilikning oldini olishda IIO sohaviy xizmatlariga samarali ko'maklashadi.

5. Elektron xizmatlar va SI algoritmlarining joriy etilishi ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini raqamlashtirish – bu shunchaki texnik jarayon emas, balki O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va raqamli davlat boshqaruvini shakllantirishning strategik omili hisoblanadi. Yuqorida tahlil qilingan chora-tadbirlar va yangi mexanizmlar mazkur dissertatsiya ishida ilgari surilgan gipotezalarining amaliy tasdig'i bo'lib, sohani yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarida fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlarini raqamlashtirish jarayonni tezlashtirish, idoralararo integratsiyani kuchaytirish, "track-and-trace" orqali nazorat va hisobdorlikni oshirish imkonini beradi. Biroq barqaror natija uchun raqamli yechimlar aniq huquqiy asoslar, minimal protsedural standartlar va kuchli data governance modeliga tayangan bo'lishi zarur. Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik talablarini majburiy standart sifatida belgilash, algoritmik xatolik va diskriminatsiya risklarini "human-in-the-loop" va audit mexanizmlari orqali boshqarish, elektron shikoyat va qarorlarni asoslash talablarini amalda ishlaydigan tizimga aylantirish raqamlashtirishning legitimligini ta'minlaydi.

Natijada, raqamli transformatsiya fuqaroga qulay, shaffof va huquqiy aniqligi yuqori fuqarolik xizmatlari modelini shakllantirishning strategik yo'nalishi bo'lib qoladi.